(7). Лебедев, А.Ю. Творчество и стиль «Ливерпульских поэтов». Вестник КГУ им. Н.А.Некрасова, № 3, 2016.

(8). http://www.wikipedia free encyclopedia//Biography of Adrian Henry//

Aslanov Asatillo Ekramovich (Navoiy davlat universiteti "Fakultetlararo chet tillari" kafedrasi katta o'qituvchisi; aslonovasatillo416@gmail.com)

ALISHER NAVOIY IJODIDA INSON QADRI VA KOMIL INSONGA XOS FAZILATLAR

Annotatsiya. *Maqolada mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyandasi Alisher Navoiy ijodida inson qadri bilan bog'liq tushunchalar: o'zaro munosabat, do'stlik, ota-onaga sadoqat, diyonat, odillik, insof, saxiylik, mehr-shafqat, chuchuk tilli, rahmdil, mard bo'lish, ilmli, xushxulqlik, rozi-rizolik bilan kun kechirish, sabr-qanoatlilik kabi xislatlarning talqin qilinishi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *inson qadri, ijtmoiy guruh, diyonat, odillik, insof, saxiylik, mehr-shafqat, ma'rifat, umuminsoniy qadriyat, ijobiy xislatlar.*

ГАРМОНИЧНАЯ ЛИЧНОСТЬ И ПОНЯТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. *В статье анализируются понятия человеческого достоинства в творчестве великого представителя нашей классической литературы Алишера Навои: взаимоотношения, дружба, верность родителям, религия, справедливость, великодушие, сострадание храбрость, знание, доброта, довольство и терпение.*

Ключевые слова*: человеческое достоинство, социальная группа, религия, справедливость, великодушие, сострадание, просвещение, общечеловеческая ценность, положительные качества.*

HUMAN VALUE AND VIRTUES OF A PERFECT MAN IN THE WORK OF ALISHER NAVOIY

Annotation. *The article analyzes the interpretation of such concepts related to human value in the works of the great representative of our classical literature, Alisher Navoi: reciprocity, friendship, loyalty to parents, piety, justice, honesty, generosity, kindness, gentleness, compassion, courage, knowledge, good manners, living a life of contentment, patience and contentment.*

Keywords: *human value, social group, piety, justice, honesty, generosity, kindness, enlightenment, universal human value, positive qualities.*

Kirish. Inson qadri masalasi Qur'oni karim, Hadisi shariflarda, Mahmud az-Zamaxshariyning "Nozik iboralar", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Pahlavon Mahmudning ruboiylarida, Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq", Sa'diy Sheroziyning "Guliston va Bo'ston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning " Mahbub ul-qulub" "Nasoyim ul-muhabbat", "Hayrat ul-abror" va boshqa kop'lab asarlarda tahlil qilinib, ulug'langan.

Asosiy qism. Buyuk bobokolonimiz Alisher Navoiyning ijtimoiy soha jonkuyari sifatida millat tafakkurini rivojlantirishdagi xizmatlari beqiyos. Shoirning butun faolyati asosida xalq va inson qadri yotadi. Navoiyning fikricha, Allohning irodasi bilan tog'-u toshlar, o'simliklar dunyosi, dengiz va okeanlar, bir so'z bilan aytganda, butun borliq yaratilgan. Ammo hazrati inson bu mo'jizalarning eng asosiysidir. Shu tufayli dunyodagi barcha noz-ne'matlar, yaxshi narsalar inson uchun yaratilgan. Aql-farosat sohibi bo'lgan inson bu imkoniyatlardan oqilona foydalanishi lozim. Boshqacha aytganda, inson aql-farosati, tafakkuri, muomala madaniyati, o'zini tutishi, tevarak-atrofga bo'lgan munosabati bilan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi. Mutafakkir "Nasoyim ul-muhabbat" asarida avliyolarga xos bo'lgan 16 ta sifatga, ya'ni, tavba, halol luqma bilan ovqatlanish, o'z kasbi bilan kun o'tkazish, shariatga rioya etish, tariqat odobini saqlash, kamsuqumlik, farzandlari va xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli, rahmdil, saxiy va mard bo'lish, ilmlilik, xushxulqlik, rozi-rizolik bilan kun kechirish, sabrli, sadoqatli va vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik xislatlariga alohida e'tibor qaratgan .

Alisher Navoiy xalq g'amini o'z g'amidek bilmaydigan odamni odam qatoriga qo'shmasligi bejiz emas.

Odamiy ersang, demagil odami

Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Buyuk bobokolonimiz insonga hayotdagi faoliyatiga, kasbi-koriga, foydali ishlariga qarab baho bergan. Jumladan, "Mahbub ul-qulub" asarida ijtimoiy tabaqalarga o'z munosabatini bildirar ekan, ularning qaysi biri xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini chuqurroq yoritib berishga harakat qiladi.

Xalq va davlat manfaati uchun buyuk ishlarni ro‘yobga chiqarishda adolatli hukmdorlar lozim deb ta`kidlaydi: “Odil podshoh Haq taolodin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qaro tufrog‘din gular ochar va mulk ahli boshiga oltin bila durlar sochar” [6;9-b.].

Alisher Navoiy dehqonlar, ularning yaratuvchilik qudrati haqida to‘lqinlanib fikr yuritadi: “Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar...Dehqonki, tuzlu bila dona sochar, Haq biriga yetti yuz eshigin ochar” [6;37-b.]. “Dehqon don sochishidan boshlab, qushlar-u jonivorlar undan bahramand, butun borliq obod” [6;38-b.]. Asarda mudarrislar, tabiblar, kotiblar, bozor ahli, askarlar, hunarmandlar kabi ijtimoiy guruhlarga xos bo‘lgan nuqson-u kamchiliklar hamda ularning ijobiy xislatlarini ko‘rsatib beradi. Tabiblar haqida fikr yuritib, ularni ishida mahoratli, bemorlarga shafqatli va marhamatli, xushmuomala bo‘lmog‘i lozimligini ta‘kidlaydi. Kotiblar faoliyatiga baho berar ekan, ularni so‘z xazinasining xazinadori deya ulig‘lab, bu soha xodimlari orasida savodsiz, loqayd, badxatlari bo‘lishini istamaydi: ”Yomon kotib manzili qalamdonidek choh aro bo‘lsun, qalamidek boshi yoro va yuzi qaro bo‘lsun” [6;26-b.].

Asarning ikkinchi qismi axloq masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, odob, tavoze, kamtarinlik, do‘stlik va birodarlik singari insoniy fazilatlar ulug‘lanadi. “Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go‘zalroq va badavlat insonlardan hurmatliroqdir... odobli kishi izzat-hurmatga loyiq” [6;63-b.], deydi. Albatta, odobli va go‘zal xulqli odamlar ko‘payaversa, xalqning do‘stligi, bir-biriga bo‘lgan muhabbati borgan sari rivoj topadi.

Alloma odamlarni insofli, saxovatli, adolatli, ahil va karomatli bo‘lishga, bir-biriga yordam berishga da’vat etadi. “Karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko‘tarmoq va uni o‘sha qiyinchiliklardan qutqarmoq. Karam – birovning mashaqqat tikanining og‘irligini ko‘tarmoq va u tikan uchidan guldek ochilmoq va o‘sha qilgan ishlarni tilga keltirmaslik, og‘ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uni yuziga solmaslikdir” [6;87-b.].

Mutafakkir ehsonni ulug‘lab, “Ehson degan sifatni abadiy saodat bil. Kishilik bog‘ining ko‘ngilga yoqar daraxti ehsondir. Barcha maqbul sifatlar va holatlar ehsonga qarashlidir, bu sifat va holatlarni u o‘z ichiga olgan hamda shuning o‘zida voqeadir. U barcha ezguliklarni o‘zida to‘plagan va barcha yaxshiliklar haqiqatdan unga tegishlidir” [6;87-b.], degan fikrni ilgari suradi.

Navoiyning fikricha, yaxshilikni o‘ziga maqsad qilib olgan odamlar saxiy va himmatli bo‘ladi. “Saxiylik kishilar bog‘ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o‘lkasining to‘lqinli daryosi, balki u to‘lqinli daryoning asl gavharidir” [6;87-b.].

Navoiy odamlarga saxiylikni xalqqa, davlatga faqat mol-mulk bilan emas, balki o‘zidagi aql va bilim yordamida ularga ma’naviy ko‘mak ham berishida deb ham tushuntiradi. Saxiylik himmatli bo‘lish bilan bog‘liq ekanini uqdirib, shunday deydi: “Saxiylik odamning odobidir, himmat uning joni, himmat dunyoga yuz ming kushoyish bo‘lar, himmatsiz kishi er sendek emas, jonsiz badanli kishi tirik emas” [6;87-b.].

Navoiy komil insonga xos xislatlar qanoat, sabr, til shirinligi, ochiq ko‘ngillik, kamtarlik, ishq, vafo, saxovat, himmat, muruvvat, ilmga baho berar ekan, qanoat haqida shunday deydi: “Qanoat – bu buloqdir, suvini olgan bilan qurimaydi, xazinadir. Naqdisi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir, urug‘i lazzat va shafqat mevasini beradi; daraxtdir, shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasini yetkazadi” [6.57]. Bizga ma`lumki, sabr nafsni qayg‘u va g‘azabdan, tilni yomon so‘z aytishdan va kasal bo‘lganda a‘zolarni tashishdan tutib turishdir. Navoiy ta`biri bilan aytganda: “Sabr achchiqdir, ammo u foyda beruvchi, qattiqdir, ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlarni ochqichdir. Achchiq so‘zli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo‘ladi. Badxo‘r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so‘ngida sog‘liq yuz beradi” [6;60-b.].

Navoiyning fikricha, insonning go‘zalligi uning tili orqali namoyon bo‘ladi. Insonda til bo‘lmaganda, u o‘likdan farqlanmasligi, shu tilgina insonga tiriklik baxsh etishi va shu orqali ezgulik, adolat yo‘liga kirishi haqida aytib o‘tgan [6;102-b.].

Bayt:

Har necha biymi hajr so‘zi oshiq o‘lturur,
Vuslat bashorati yana jismig‘a jon berur. [6;13-b.]

Ko‘ngilni ulug‘ ne’mat deya e’tirof etib, ko‘nglida kemtigi bor insonni ko‘nglini ko‘tarish go‘yo bir bora haj safariga borishdek amalga tengligini ta’kidlydi.

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.
Ka‘baki, olamning o‘lub qiblasi,
Qadri yo‘q onchakim, ko‘ngul ka‘basi. [6;66-b.]

Navoiy tabiat olamining go‘zal qilib yaratilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad inson bo‘lib, u yer yuzidagi barcha mavjudotlar ichida tengi yo‘q bir xilqatdir deb uqdiradi.

Ofarinishdin qilib inson ga‘raz,
Oni aylab xalq ichinda baevaz. [2;56-b.]

Olamdagi barcha narsa, hodisa va o‘zgarishlarning ijodkori bo‘lgan xudo o‘zi yaratgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birga, bir butun holda mavjuddir. Shunga ko‘ra, ilohiyot va tabiatni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas.

Sun’ungg‘a yuz ofarin, ey kirdikor,
Ga‘yr yo‘q sen, senki derlar oni bor.
Borsen sen, borlig‘ zebandasi,
Birliku jabborlig‘ arzandasi.
Sendadur ham birliku ham borlig‘.
Haylig‘u qodirlig‘u g‘affurlig‘. [2;78-b.]

Navoiy inson axloqidagi «yomon» tomonlar deganda nimalarni ko‘zda tutadi? Buning batafsil javobi qushlar va Hudhud munozarasi, ular bilan Hudhud o‘rtasidagi savol-javob epizodlarida berilgan. Navbatdagi savol-javob insof haqida. Bu boradagi Navoiyning fikrlari Hudhud javobida quyidagicha ifoda etilgan: Odamiyg‘a yaxshi ko‘p avsof erur,

Lek alarning ashrafi insof erur.
Kimgakim insof yo‘q – inson emas.
Munsiz atvorida juz nuqson emas. [2;67-b.]

Shoirning fikricha, kishining o‘z nuqsonini tan olishi kelajakda turli xatolarga yo‘l qo‘ymaslik garovi va asl insoniy kamolot belgisidir.

“Mahbub ul-qulub” asarining uchinchi qismida turli foydali maslahatlar bilan birga Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribasining natijalari, xulosalari keltirilgan. Navoiy yuksak insoniy fazilatlrni targ‘ib etish bilan birga, jamiyat uchun zararli, insonning sha‘niga putur yetkazadigan illatlarni fosh etadi. Ya‘ni, zamonasidagi zulmkorlik. behayolik, inson, uning qadr-qimmatining oyoq osti qilinishini qattiq qoralaydi.

Darhaqiqat, xalqimiz o‘z taraqqiyoti davomida erishgan va yaratgan madaniy boyliklardan, axloqiy qarashlar va qoidalardan unumli foydalanmasdan inson qadrini anglaydigan, yurtsevar, xalqparvar, yuksak ma‘naviy madaniyat egasi bo‘lgan yoshlarni kamolatga yetkazish mumkin emas.

Alisher Navoiy haqiqiy kishilik axloqi oddiy insonlarga xos axloq ekanligini isbotlab, Vatanga muhabbatni chin insoniylikning, ma‘naviyatning asosiy mezoni bo‘lgan insonparvarlik namunasi deb hisoblaydi:

“*Boshni fido ayla ato qoshiga,*
Jismni qil sadqa ano boshiga,
Ikki jahoninga qilsalar fazo
Hosil et, ushbu ikkisidan rizo.
Tun-u kunga aylagali, nurposh,
Birisin oy ayla, birisin qo‘yosh,
So‘zlaridan chekma qalam tashqari
Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari,
Bo‘lsin adab birla bori himmating,
Ham qil adab «dol» kabi qimmating, deydi shoir” [6;102-b.]

Xalqimizda ota-onaga bo‘lgan hurmat, uni e’zozlash, ulug‘lash hamisha yuqori darajada bo‘lgan, bu esa ma‘naviyatimizning qay darajada yuksak bo‘lganligini ifodalaydi.

Muhokama va natijalar. Alisher Navoiy butun umri davomida xalqparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan umrboqiy asarlarida ifodalash bilan cheklanib qolmay, amaliy faoliyatida millat va davlat ravnaqi yo‘lida tinimsiz faoliyat olib bordi. Navoiy insonga, xalqqa, vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatini o‘z ijodi va ijtimoiy faoliyatini mag‘zida ifodaladi. U o‘z zamonasidagi zulm va qashshoqlik iskanjasida qolgan xalqni ulug‘lab, umuminsoniy fazilatlarni targ‘ib etish bilan, xalqni baxtiyor qilish yo‘lida, butun vujudi bilan kurash olib bordi. Ulug‘ allomaning yaratgan buyuk san’at asarlari va bunyodkorlik faoliyatida Vatan obodligi, ravnaqi hamda unda yashovchi xalq manfaatlarini qattiq himoya qilib, uning tafakkurini yuksaltirishdek noyob uygunlikka erishdi.

Shoir e’zozlagan umuminsoniy qadriyatlar dunyodagi barcha xalqlarning manfaat va intilishlariga mos kelishi bilan juda qimmatlidir. Aynan ilm-fanni rivojlantirish, qashshoqlikka barham berish, vatan

obodligiga erishish, inson qadrini yuksaltirish, yer yuzida tinchlikni saqlash bugun umumbashariy qadriyat bo‘lib, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning bu boradagi xizmatlari cheksiz g‘urur va iftixor ramzi sifatida ulug‘lanib, milliy tiklanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarning merosi bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo‘lish o‘zlikni anglashning zarur sharti bo‘lib, bu borada Alisher Navoiyning ulkan ma‘naviy merosi, bunyodkorlik g‘oyalari biz avlodlar uchun bitmas-tuganmas xazina bo‘lib xizmat qiladi.

Navoiy insonning ichki dunyosi, to‘yg‘ulari, tafakkuri, odob-axloq kamolotini olamdagi ma‘naviy borliqning qo‘yoshi, yulduzi oyi, mevali daraxtlari, chiroyli gullariga taqqoslaydi. Inson xulqining go‘zalligini faoliyatinning ko‘rinishlariga, tabiat saxovatlariga, hodisalariga va boshqalariga taqqoslab, inson tabiatidagi o‘zgarishlarni agar u salbiy bo‘lsa, tabiatning kulfat keltiruvchi kuchlariga, ijobiy bo‘lsa, tabiat go‘zalliklariga qiyoslaydi. Insonning ulug‘ligini, fazilatlarini so‘zni o‘z o‘rnida ishlata bilishi bilan belgilab, inson uchun zarur bo‘lgan xislatlar kamtarlik, saxovat, oliyhimmatlik, do‘stlik, to‘g‘riso‘zlik kabi fazilatlarni madh etadi va bir qancha salbiy sifatlarni qoralaydi.

Shoir asarlaridagi ko‘pgina baytlar hikmatli so‘zlar darajasiga ko‘tarilgan. Mutafakkirning hikmatli so‘zlari xalq maqollariga aylanib ketgan. Masalan:

“*Kimki ulugroq anga xizmat kerak,*
Ulki kichikroq anga shavqat kerak.
(Kattaga hurmatda, kichikka izzatta bo‘l).
Arzi hunar bo‘lsa yigitlar ishi,
Qilsa ayon o‘z hunarin har kishi.
(Yigit kishiga qirq hunar oz.)” [6;43-b.]

Navoiy o‘z zamonida siyosatda, ijtimoiy munosabatlarda va boshqaruvda insoniy bag‘rikenglik ustuvor bo‘lishiga da’vat etgan. Amal qilinayotgan qonunning ahamiyatini belgilashda insonparvarlik, insoniy bag‘rikenglik eng asosiy mezon bo‘lishi kerakligiga chaqirgan:

«Nekim o‘z qoshingda erur noravo,
Ulusqa ani ko‘rma aslo ravo.
Yomonga jazo gar siyosatdurur,
Muruvvat – tariqi rayosatdurur». [6;45-b.]

(Nimaniki o‘zinga nisbatan noravo deb bilsang, uni xalqqa ham, aslo, ravo ko‘rma! Yomonga jazo berish, garchi qonun va siyosat yuzasidan to‘g‘ri bo‘lsa ham, ammo adolatli hukmdorning asl yo‘li – shafqat va muruvvatdir).

Ta'kidlash joizki, o‘zinga ravo ko‘rmagan narsani boshqaga ham ravo ko‘rma, degan tamoyil umuminsoniy qadriyatdir. Bu tamoyil Konfutsiy ta‘limotida ham, qadimgi Hindistonning «Manu qonunlari»da ham, Tavrot va Qur’onda ham uchraydi. Alisher Navoiy bu umuminsoniy g‘oyani insoniyatga yana bir bor eslatadi.

Xulosa. Alisher Navoiy jahon adabiyoti tarixida asarlari chuqur donishmandlik va ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan buyuk so‘z san`atkorlaridan biri sanaladi. Mutafakkir shoirning hayot va inson haqidagi qarashlari asosan badiiy ijodiyotida murakkab allegoriyalar, simvollar, muayyan nazariy tushunchalarni ifodalovchi obraz-istilohlar vositasida yuksak darajadagi shoirona til bilan ifoda etilgan. Hazrat Navoiy yaratgan har bir asar insonni yaxshi xulqlar tomon yetaklaydi. Falsafiy teran fikrlar bilan sug‘orilgan asarlaridan insoniyatning bahramand bo‘lishi, xalq dardini ochib berishi barchamizni ogohlikka, ezgulik yo‘lida adolat bilan yashashga, mehnat qilishga chorlaydi. Alisher Navoiyning hayoti davomida qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga va savodli bo‘lishiga undashi, turli xil savobli va xayrli ishlari tahsinga sazovordir. Bugungi kunda komillikka erishgan insonni tarbiyalash eng muhim vazifa sanaladi. Bunda Navoiyning asarlarini o‘z zamonimizga talqin qilgan holda yosh avlodni tarbiyalash, ularga ilm olish va uni o‘zgalar bilan baham ko‘rishni o‘rgatishimiz kerak. Buyuk bobokolonimiz yaratgan har bir asar xalqni rostgo‘ylik, saxovatlilik, kamtarlik, nafsga bo‘ysunmaslik, muloyimlik kabi ko‘plab yaxshi fazilatlarga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug‘ati, Xo‘jand, R.Jalil nomidagi davlat nashriyoti, 1997.

(2). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, Yigirma tomlik. XII tom. Lison ut-tayr. 1999, 110-bet.

(3). Qayumov A. Hayrat ul-abror talqini. Toshkent, 1970.

(4). Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. Toshkent, «O‘qituvchi», 1997.

(5). Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2021, 538 bet.
(6). Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (matn, sharh, nasriy bayon), Birinchi kitob, Toshkent, “Tamaddun”, 2021, 400 bet.
(7). Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (hozirgi o‘zbek tiliga tabdil), Toshkent, “Sano-standart", 2018,192 bet.

Fayzullayeva Obidaxon (GulDU “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori; e-mail: fayzullayeva2016@yandex.ru),
Soatova Shahnozabonu Farhod qizi (Guliston davlat universiteti Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti; e-mail: shahnozasoatova7@gmail.com)

“ASIL VA KARAM” DOSTONI QAHRAMONLARI TAQDIRIDA DINIY MOTIVLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq folklorida motiv tushunchasi, diniy motivning badiiy-estetik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. Xalq dostonlaridagi diniy motivning badiiy-estetik xususiyatlari masalasi Xorazm “Oshiqnoma” turkum dostonlari tarkibiga kiruvchi “Asil va Karam” dostoni misolida tadqiq etilgan. Diniy motivning o‘ziga xos jihatlari, uning doston sujetidagi vazifasi, qahramonlar taqdiridagi o‘rni va ifodalanish tarzi kabi jihatlarga urg‘u berilgan.*

Kalit so‘zlar: *motiv, epos, obrazlar parallelizmi, sujet, tugun, badiiy-estetik xususiyatlar, turkumlilik.*

Файзуллаева Обидахан (ГулГУ, профессор кафедры узбекской литературы, доктор филологических наук; fayzullayeva2016@yandex.ru),
Соатова Шахнозабону Фарход кизи (Гулистанский государственный университет, магистрантка 2-курса литературоведениеческого направления; e-mail: shahnozasoatova7@gmail.com)

МЕСТО И РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ МОТИВОВ В СУДЬБАХ ГЕРОЯХ ЭПОСА «АСИЛ И КАРАМ»

Аннотация. *В данной статье рассматривается понятие мотива в узбекском фольклоре, художественно-эстетические особенности религиозного мотива. Вопрос художественно-эстетических особенностей религиозного мотива в народных эпосах исследуется на примере эпоса «Асил ва Карам», входящего в состав «Ашик туркум эпоса» Хорезма. Акцентируется внимание на конкретных сторонах религиозного мотива, его роли в сюжете эпоса, роли в судьбах героев, способе его выражения.*

Ключевые слова: *мотив, эпос, параллельность образов, сюжет, узел, художественно-эстетические особенности, непрерывность.*

Obidakhan Faizullayeva (GulSU, professor of the department of Uzbek literature, doctor of philology; e-mail: fayzullayeva2016@yandex.ru),
Soatova Shahnozabonu Farhod qizi (Gulistan State University 2nd year master's student in literary studies; e-mail: shahnozasoatova7@gmail.com)

THE PLACE AND ROLE OF RELIGIOUS MOTIVES IN THE DESTINIES OF THE HEROES OF THE EPIC “ASIL AND KARAM”

Annotation.*This article focuses on the concept of motive in Uzbek folk folklore, artistic and aesthetic features of religious motive. The issue of artistic-aesthetic features of the religious motive in folk epics is studied on the example of the epic “Asil and Karam”, which is part of the “Ashiq” cyclicity epics of Khorazm. Emphasis is placed on the specific aspects of the religious motif, its role in the plot of the epic, its role in the fate of the heroes, and the manner of its expression.*

Keywords: *motive, epos, parallelism of images, plot, knot, artistic-aesthetic features, cyclicity.*

Kirish. O‘zining qadimiy va barqaror dostonchilik an’analariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi ma’naviy bisotida boy va rang-barang epik asarlar juda katta ko‘lamni tashkil etadi. Ular ajdodlarimiz epik tafakkur taraqqiyotining eng yuksak cho‘qqisini zabt etganligining isbotidir. Xorazm vohasida eng qadimdan keng tarqalgan, o‘zining obrazlar sistemasi, voqealarni tasvirlash usuli jihatidan alohida guruhni tashkil etadigan ishqiy-sarguzasht dostonlar “Oshiqnoma” turkumi atrofiga jamlanadi. Ushbu turkumga mansub “Asil va Karam” dostoni Xorazm o‘zbeklari orasida juda keng ommalashgan. Ozarbayjon folklorshunosi M.X.Taxmasbning yozishicha, “Bu doston arman go‘zali va ozarbayjonlik yigit Karam o‘rtasidagi sof muhabbatning tarannumiga bag‘ishlangandir” [1;20-b.].

Adabiyotlar tahlili. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”da “Motiv sujet tarkibidagi halqalardan biridir”, deyilgan. Sujet asar mazmunini tashkil etadigan voqealar tizimi bo‘lsa, motiv shu voqelikni yuzaga chiqaruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ushbu fikrga qo‘shimcha qilib M.